

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 21-07-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

252092 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumanida pastki qavatlarini noturar bo'lgan ko'p qavatli, ko'p xonadonli turar joy binolari, bolalar bog'chasi, o'quv markazi va ko'p qavatli avtoturargoh qurish uchun ruxsatnoma (Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasining 2024 yil, 12 noyabrdagi 02-4225-sonli xati)	
Buyurtmachi:	BABUR Q MIMARLIK VE INSAAT MCHJ
Bosh loyihachi:	"CITY ART PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	076731

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-12-24 yildagi 1727-1727239-209087-sonli "Arxitektura rejalashtirish topshirig'i".

1.2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan ob'ektni ixtisosini o'zgartirish va rekonstruksiya qilishga 02.12.2024 yildagi №159454581-sonli ruxsatnoma.

1.3. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 17.04.2025 yildagi 186189795-sonli xulosasi.

1.4. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti bilan 2025-yilda kelishilgan hamda tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.

1.5. «GEO-MIR» MChJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

1.6. Buyurtmachining loyiha tashkiloti bilan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 16.06.2025-yildagi №19/25-sonli shartnomasi.

1.7. «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ «Toshkent hududiy filiali» elektr tarmoqlariga ulanish uchun 17.06.2025 yildagi №2723959363-sonli texnik shart.

1.8. Toshkent viloyati suv ta'minoti "Yuqori Chirchiq tuman filiali" tomonidan 17.06.2025 yilda berilgan №152 -sonli texnik shart.

1.9. "Hududgaz Toshkent" GTFning 16.07.2025 yildagi №38-02-11/5244 sonli javob xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. "CITY ART PROJECT" MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning issiqlik-texnik hisoboti.

2.3. "CITY ART PROJECT" MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan obyektning energetik passporti.

2.4. "CITY ART PROJECT" MCHJ tomonidan Binoning konstruktiv xisobi bo'yicha 2025 yildagi texnik xulosasi.

2.5. Buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan asbob-uskuna va qurilish materiallari narxlarni shakllantiruvchi hujjatlar (kelishuv bayonnomalari).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Tashqi havoning qishki hisobiy harorati $-29.5\text{ }^{\circ}\text{C}$.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38\text{ kPa}$.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50\text{ kPa}$.

Loyihaning xisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball.

Tuproqning seysmik xossasi - II (ikkinchi).

Tuproqning cho'kuvchanlik toifasi - II (ikkinchi).

Yerning muzlash chuqurligi - 0,7 m.

3.2. Bosh reja va Arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Bosh reja loyihasi texnik topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan. Obyekt Toshkent viloyati, Yuqorichirchiq tumani, "Ma'rifat" MFY, Fayz ko'chasi, 1-uy hududida joylashgan.

Bosh rejada quyidagi bino va inshootlar loyihalanishi ko'zda tutilgan (shuningdek, loyiha topshirig'ida ham belgilangan qurilish bosqichlari):

- 9-qavatli turar-joy binolari (Блок №4, №5, №6, №7, №8) (1-bosqich);
- 9-qavatli turar-joy binolari (Блок №1, №2, №3) (2-bosqich);
- ko'p qavatli avtoturargoh (3-bosqich);
- o'quv markazi (maktab) (3-bosqich);
- bolalar bog'chasi (3-bosqich);
- bolalar maydonchasi (3-bosqich);
- "Workout" maydonchasi (3-bosqich);
- ochiq ayvon (3-bosqich);
- besedka (3-bosqich);
- Avtoturargoh (3-bosqich);

Bosh rejaning texnik - iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon -26465,0 m²;

Qurilish osti maydon -9800,0 m²;

Ko'kalamzor maydon -6529,0 m²;

Qoplamalar maydoni -10136,0 m²;

Bolalar va sport maydoni - 920,0m²;

3.3. Arxitektura - qurilish qismi.

9-qavatli turar-joy binolari (Blok-2, 1-tip) - 9 qavatli, yerto'la va texnik qavatli bo'lgan, to'rtburchak (G) shakldagi binoning tarx o'qdagi o'lchamlari 42,6x21,6 metrni tashkil etadi. Obyektda 2 dona lift va 2ta zina loyihalangan. Yerto'la qavatida shug'ullanish zali, omborxona, elektrshit, nasosxona, lift zal, zina maydoni loyihalangan.

Birinchi qavatida do'kon, hojatxona, lift zal, tambur va zina maydoni loyihalangan.

Bino 2-8-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon, lift, yo'lak va boshqalar loyihalangan.

Bino 9-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon/terassa, lift zal, yo'lak va boshqalar loyihalangan.

Tom qavatda zina maydoni loyihalangan.

Xonalar tarkibi:

1-xonali -39ta;

2-xonali -40ta;

3-xonali -8ta;

Yer to'la qavati poldan orayopmagacha $h=3,9$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=4,0$ metr.

Bino 2-9-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,9$ metr.

Bino tom qavat balandligi poldan shiftgacha $h=2,5$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon - 7082,55m²;

Umumiy maydon kvartira - 5030,71m²;

Tijorat maydoni - 517,86m²;

MOP maydoni - 1038,78m²;

Qurilish maydon - 1006,6m²;

Qurilish hajmi - 23658,6m³;

Qurilish hajmi ± 0.000 - 3305,23m³;

Bino maksimal balandligi - 33.300 metr;

9-qavatli turar-joy binolari (Blok-1va7, 2-tip) - 9 qavatli, yerto'la va texnik qavati bo'lgan, to'rtburchak shakldagi binoning tarx o'qdagi o'lchamlari 48,2x16,6 metrni tashkil etadi. Obyektda 2 dona lift va 2ta zina loyihalangan. Yerto'la qavatida omborxona, o'yingoh xonasi, shug'ullanish xonasi, yo'l, elektrshit, nasosxona, zina maydoni va boshqalar loyihalangan.

Birinchi qavatida mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash xonasi), oshxona va boshqalar loyihalagan.

Bino 2-9-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon, lift, yo'lak va boshqalar loyihalangan.

Tom qavatda zina maydoni loyihalangan.

Xonalar tarkibi:

1-xonali -56ta;

2-xonali -52ta;

Yer to'la qavati poldan orayopmagacha $h=3,0$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=4,0$ metr.

Bino 2-9-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,9$ metr.

Bino texnik qavat balandligi poldan shiftgacha $h=2,7$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon - 7569,72m²;

Umumiy maydon kvartira - 6471,40m²;

MOP maydoni - 1040,04m²;

Qurilish maydon - 826,20m²;

Qurilish hajmi - 24868,62m³;

Qurilish hajmi ± 0.000 - 2726,46m³;

Bino maksimal balandligi – 33.300 metr;

9-qavatli turar-joy binolari (Blok-3, 1-tip) – 9 qavatli, yerto'la va texnik qavat bo'lgan, to'rtburchak (G) shakldagi binoning tarx o'qdagi o'lchamlari 42,6x21,6 metrni tashkil etadi. Obyektda 2 dona lift va 2ta zina loyihalangan. Yerto'la qavatida omborxona, elektrshit, nasosxona, lift zal, zina maydoni va boshqalar loyihalangan.

Birinchi qavatida do'kon, hojatxona, lift zal, tambur va zina maydoni loyihalangan.

Bino 2-9-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon, lift, yo'lak va boshqalar loyihalangan.

Tom qavatda zina maydoni va lift maydoni loyihalangan.

Xonalar tarkibi:

1-xonali -39ta;

2-xonali -40ta;

3-xonali – 8ta;

Yer to'la qavat poldan orayopmagacha $h=3,9$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=4,0$ metr.

Bino 2-9-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,9$ metr.

Bino texnik qavat balandligi poldan shiftgacha $h=2,5$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon – 7082,55m²;

Umumiy maydon kvartira – 5030,71m²;

Tijorat maydoni – 517,86m²;

MOP maydoni – 1038,78m²;

Qurilish maydon – 1006,6m²;

Qurilish hajmi – 23658,6m³;

Qurilish hajmi ± 0.000 – 3305,23m³;

Bino maksimal balandligi – 33.300metr;

9-qavatli turar-joy binolari (Blok - 4 va 6, 2-tip) – 9 qavatli, yerto'la va texnik qavat bo'lgan, to'rtburchak shakldagi binolarning tarx o'qdagi o'lchamlari 48,2x16,6 metrni tashkil etadi. Obyektda 2 dona lift va 2ta zina loyihalangan.

Yerto'la qavatida omborxona, o'yinxona, shug'ullanish xonasi, yo'lak, nasosxona, elektroshtit va zal loyihalangan.

Birinchi qavatida mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash xonasi), oshxona va boshqalar loyihalagan.

Bino 2-9-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon, lift, yo'lak va boshqalar loyihalangan. Tom qavatda zina maydoni loyihalangan.

Xonalar tarkibi:

1-xonali -54ta;

2-xonali -52ta;

Yer to'la qavat poldan orayopmagacha $h=3,0$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=4,0$ metr.

Bino 2-9-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,9$ metr.

Bino texnik qavat balandligi poldan shiftgacha $h=2,7$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon – 7388,68m²;

Umumiy maydon kvartira – 5818,10m²;

MOP maydoni – 1040,04m²;

Qurilish maydon – 826,20m²;

Qurilish hajmi – 24868,62m³;

Qurilish hajmi ± 0.000 – 2726,46m³;

Maksimal balandligi – 33.300metr;

9-qavatli turar-joy binolari (Blok - 5 va 8, 3-tip) – 9 qavatli, yerto'la va texnik qavati bo'lgan, to'rtburchak (Γ) shakldagi binolarning tarx o'qdagi o'lchamlari 33,6x21,6 metrni tashkil etadi. Obyektda 2 dona lift va 2ta zina loyihalangan.

Yerto'la qavatida omborxona, o'yinxona, shug'ullanish xonasi, garderoob, yo'lak, nasosxona, elektroshit, zina maydoni va boshqalar loyihalangan.

Birinchi qavatida mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash xonasi), oshxona va boshqalar loyihalagan.

Bino 2-9-qavatlarda mehmonxona (umumiy xona), yotoqxona, yo'lak, hojatxona (vanna va tozalash), oshxona, balkon va boshqalar loyihalangan.

Texnik qavatda zina maydoni loyihalangan.

Xonalar tarkibi:

1-xonali -11ta;

2-xonali -52ta;

3-xonali -9ta;

Yer to'la qavati poldan orayopmagacha $h=3,0$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=4,0$ metr.

Bino 2-9-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,9$ metr.

Bino texnik qavat balandligi poldan shiftgacha $h=2,5$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon – 5796,93m²;

Umumiy maydon kvartira – 4459,7m²;

MOP maydoni – 873,87m²;

Qurilish maydon – 639,36m²;

Qurilish hajmi – 19244,73m³;

Qurilish hajmi ± 0.000 – 2109,88m³;

Maksimal balandligi – 33.300metr;

Arxitektura yechimlari: (Bloklar 1-8)

Poydevor – temir beton monolit;

Yer osti devor – 300mm va 400mm qalinlikdagi temir beton monolit;

Diafragma qattiqlik – 200mm qalinlikdagi temir beton monolit;

Devor – 200mm qalinlikdagi gazoblok;

Devor izolyatsiya – 70mm qalinlikdagi mineral bazalt;

Pardevor – 100mm qalinlikdagi gazobeton bloklar;

Kolonna – temir beton monolit;

Balkon to'siq – metal;

Zina – temir beton monolit;

Zina favqulodda – metal;

Orayopma – 220mm qalinlikdagi yig'ma temir beton plita;

Tom izolyatsiya (1) – 100mm qalinlikdagi ekstrudlangan penopolistirol;

Tom izolyatsiya (3) – 70mm qalinlikdagi mineral paxta;

Tom (1) – tekis tom, temir beton monolit;

Tom (2) – metal konstruksiya, 120mm qalinlikdagi sendvich panel;

Tom (3) – metal ferma, profnastil qoplama;

Tashqi pardoqlash:

Poypesh – italogranit (dekorativ);

Devor – oddiy suvoq, suyuq “Travertin”;

Kazirok – alyukabond qoplama;

Ichki pardoqlash:

Devor – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya va rang;

Shift – tekislangan suvoq shift va rang;

Pol – laminat (MDF), keramik plita va italogranit;

Eshik – tashqi metal eshik, ichki MDF (yog’och);

Rom – plastik profil;

Vitraj – alyumin profil;

Bolalar bog’chasi – 3 qavatli, yerto’la qavatli bo’lgan, to’rtburchak shakldagi binoning tarx o’q’dagi o’lchamlari 29,6x11,6metrni tashkil etadi. Obyektda 1 ta zina loyihalangan. Tashqi tomonda 2ta favqulodda zina va yerto’la zina ko’rsatilgan.

Yerto’la qavatida zal, sport zal, kiyim almashtirish xonalari, tozalash xonasi, elektrshit, omborxonalar, inventar, hojatxona, tozalash xonasi, texnik xonalar loyihalangan.

Birinchi qavatda vestibul, kiyim almashtirish xonalari, gruppalar №1 va №2, hojatxonalar, tozalash xonasi, oshxona, yo’lak, qo’riqlash xonasi, medpunkt, ish boshqaruvchi xonasi, oshxona, hojatxona loyihalangan.

2-qavatda zal, kabinet, hojatxonalar, kiyim almashtirish xonalari, gruppalar №1 va №2 va gruppalar №3 va №4 xonalari loyihalangan.

3-qavatda zal, kabinet, faollar zali, №1, 2 va 3 bolalar o’ynash xonasi loyihalangan.

Bino tom qavatda faqat zina maydoni ko’rsatilgan.

Yer to’la qavatli poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Bino 1-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Bino 2-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Bino 3-qavat balandligi poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichi:

Umumiy maydon – 1399,15m²;

Qurilish maydon – 360,0m²;

Qurilish hajmi – 3949,70m³;

Arxitektura yechimlari:

Poydevor – temir beton monolit;

Devor – 200mm qalinlikdagi gazoblok;

Pardevor – 100mm qalinlikdagi gazoblok;

Kolonna – kesimi 400x400mm temir beton monolit;

Devor – 200mm qalinlikdagi gazoblok;

Devor izolyatsiya – 70mm qalinlikdagi mineral bazalt;

Zina – temir beton monolit.

Orayopma – 220mm qalinlikdagi yig’ma temir beton plita;

Tom izolyatsiya (1) – 2 qatlamli umumiy 160mm qalinlikdagi ekstrudlangan penopolistirol;

Tom (1) – tekis tom, temir beton monolit;

Tom (2) – yog’och konstruksiya, profnastil qoplama;

Tashqi pardoqlash:

Poypesh – italogranit (dekorativ);

Devor – oddiy suvoq, suyuq “Travertin”;

Dekorativ element – alyukabond qoplama;

Ichki pardoqlash:

Devor – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya bilan bo'yash, namlik mavjud xonalarda pastki qismlarda keramik plitkalar bilan qoplash;

Shift – suvoq, suv emulsiya va rang, plastik, gipsokarton va suv emulsiya va rang;

Pol – italogranit, rezin, keramik, laminat va keramik plita;

Eshik – tashqi alyumin profil, ichki MDF (yog'och);

Rom – plastik profil;

Vitraj – alyumin profil;

O'quv markazi (maktab) – 3 qavatli, yerto'la va tom qavati bo'lgan, to'rtburchak shakldagi binoning tarx o'qdagi o'lchamlari 29,6x14,6metrni tashkil etadi. Obyektda 1dona zina loyihalangan. Tashqi tomonda 1ta favqulodda zina loyihalangan. Yerto'la qavatida sport zal, kutubxona, elektrshit, texnik xona, ish boshqaruvchi xonasi, hojatxona (erkak va ayol), yo'laklar, arxiv, jismoniy tarbiya xona, yo'lak, kiyim almashtirish xonasi (erkak va ayol) va omborxona loyihalangan.

1-qavatda: tambur, vestibul, qabulxona, direktor kabinet, hisobxona, medkabinet, o'qituvchi xonasi, oshxona, ovqatlanish xonasi, tozalash xonasi, hojatxona (erkak va ayol), faollar zali va boshqalar loyihalangan.

2-qavatda: o'quv xonalari, yo'lak, laboratoriya, hojatxonalar va boshqalar loyihalangan.

3-qavatda: o'quv xonalari, yo'lak, laboratoriya, hojatxonalar va tozalash xonasi loyihalangan.

Yer to'la qavati poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Bino 1,2 va 3-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=3,3$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon – 1542,9m²;

Qurilish maydon – 450,0m²;

Qurilish hajmi – 4995,0m³;

Arxitektura yechimlari:

Yerosti devor – 400mm qalinlikdagi beton monolit;

Devor – 200mm qalinlikdagi gazoblok;

Devor izolyatsiya – 70mm qalinlikdagi mineral bazalt;

Pardevor – 100mm qalinlikdagi gazoblok;

Orayopma – 220mm qalinlikdagi yig'ma temir beton plita;

Kalona – 400x400mm kesimdagi temir beton monolit;

Tom (1) – tekis tom, gidroizolyatsiyalangan temir beton monolit;

Ayvon uchun tom (2) – yog'och ferma, metal varoq;

Tom izolyatsiya (1) – 2qatlamli umumiy 160mm qalinlikdagi ekstrudlangan penopolistirol;

Tashqi pardoqlash:

Poypesh – italogranit (dekorativ);

Devor – fasad bo'yoq, travertin;

Kazirok parapet qoplama – tunikabond;

Kazirok qoplama – alyukabond;

Ichki pardoqlash:

Devor – yaxshilangan suv emulsiya va rang, suvoq va namlik mavjud xonalarda keramik plitka;

Shift – tekislangan suvoq, suv emulsiya va rang va boshqa xonalarda plastik, gipsli suvoq va suv emulsiya, rang;

Pol – italogranit, keramik plitka, rezin qoplama, laminat, tarket va boshqalar.

Vitraj – alyumin profil;

Rom – alyumin profil;

Eshik – alyumin, yog'och (MDF);

Avtoturargoh – 3 qavatli, yerto'la qavati bo'lgan, to'rtburchak shakldagi binoning tarx o'qdagi o'lchamlari 88,5x33,5metrni tashkil etadi. Obyektda 1 dona lift va 2ta ichki zina loyihalangan.

Yerto'la qavatida zina maydoni, avtoturargoh, elektroshit, lift zal, yo'lak va nasosxona loyihalangan.

Birinchi qavatda avtoturargoh, zina maydoni, elektrshit, lift zal va yo'lak loyihalangan.

2 va 3-qavatlarda avtoturargoh, zina maydoni, elektrshit, lift zal va yo'lak loyihalangan.

Yer to'la qavati poldan orayopmagacha $h=2,95$ metr.

Bino 1 va 2-qavatlar balandligi poldan orayopmagacha $h=2,95$ metr.

Bino 3-qavat balandligi poldan metal fermagacha maksimal $h=4,2$ metr.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi:

Umumiy maydon – 10042,8m²;

Qurilish maydon – 2594,7m²;

Qurilish hajmi – 26647,57m³;

Arxitektura yechimlari:

Yer osti devor – 400mm qalinlikdagi temir beton monolit;

Yer ustki devor – 200mm qalinlikdagi gazobeton;

Ustun – 500x500mm qalinlikdagi temir beton monolit;

Tom – metal konstruksiya va profnastil;

Zina – temir beton monolit;

Tashqi pardoqlash:

Poypesh – italogranit qoplama;

Devor – fasad suvoq;

Ichki pardoqlash:

Devor – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya va rang;

Shift – yaxshilangan suvoq, suv emulsiya va rang;

Rom – plastik profil;

Vitraj – alyumin profil;

Pol – asfalt qoplama, italogranit qoplama,

Loyihada nogironligi mavjud insonlar va qariyalar uchun qulay va erkin harakatlanishlari inobatga holda chora tadbirlar ishlab chiqilgan.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Tip 1(blok№2; blok№3). Tip 2(blok №1; blok №4; blok №6;blok №7). Tip 3 (blok №5;blok №8) - Bino 9 qavatli bo'lib, yerto'la qismiga ega. Bino konstruktiv yechimi temir-beton karkas va diafragmali etib belgilangan. Poydevori – quyma, temir betonli, yaxlit plitasimon shaklda, qalinligi 900mm ni tashkil etadi. Beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Ustunlari – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V25.

To'sinlari (rigel) – quyma, temir betonli bo'lib, 500(h)x400 va 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V25.

Orayopmalari – zavodda ishlab chiqarilgan plitalardan yopilgan. Ayrim joylari quyma, temir betonli.

Tashqi devorlar – gazobloklardan iborat.

Zinapoyalari - quyma, temir beton.

Maktab - Bino 3 qavatli bo'lib, yerto'la qismiga ega.

Bino konstruktiv yechimi temir-beton karkasli va to'ldiruvchi sifatida g'ishtli etib belgilangan.

Poydevori – quyma, temir betonli, tasmasimon shaklda, qalinligi 400mm va eniga 1400mm ni tashkil etadi. Beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Ustunlari – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V20.

To'sinlari (rigel) – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V25.

Orayopmalari – zavodda ishlab chiqarilgan plitalardan yopilgan. Ayrim joylari quyma, temir betonli.

Tashqi devorlar – qalinligi 200mm bo'lib, gazoblokdan iborat.

Zinapoyalari - quyma, temir betonli bo'lib, beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Bolalar bog'chasi binosi - Bino 3 qavatli bo'lib, yerto'la qismiga ega.

Bino konstruktiv yechimi temir-beton karkasli va to'ldiruvchi sifatida g'ishtli etib belgilangan.

Poydevori – quyma, temir betonli, tasmasimon shaklda, qalinligi 400mm va eniga 1400mm ni tashkil etadi. Beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Ustunlari – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V20.

To'sinlari (rigel) – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm li bo'lib, beton sinfi V25.

Orayopmalari – zavodda ishlab chiqarilgan plitalardan yopilgan. Ayrim joylari quyma, temir betonli.

Tashqi devorlar – qalinligi 200mm bo'lib, gazoblokdan iborat.

Zinapoyalari - quyma, temir betonli bo'lib, beton sinfi V20 ni tashkil etadi

Ko'p qavatli avtoturargoh - Bino 2 qavat va terassali bo'lib, yerto'la qismiga ega.

Bino konstruktiv yechimi temir-beton karkasli va to'ldiruvchi sifatida gazablokli etib belgilangan.

Poydevori – quyma, temir betonli, yaxlit shaklda, qalinligi 500mm ,Beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

Ustunlari – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm va 500x500mm li bo'lib, beton sinfi V25.

To'sinlari (rigel) – quyma, temir betonli bo'lib, 400x400mm va 500x500mm li bo'lib, beton sinfi V25.

Orayopmalari – quyma, temir betonli bo'lib, qalinligi 250mm, beton sinfi V25.

Tashqi devorlar – qalinligi 200mm bo'lib, gazoblokdan iborat.

Zinapoyalari - quyma, temir betonli bo'lib, beton sinfi V20 ni tashkil etadi.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Tip 1(blok№2,3). Tip 2(blok №1,4,6,7). Tip 3 (blok №5,8)

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – II.

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi – F1.3.

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi – C1.

Maktab binosi:

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – II.

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi – F4.1.

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi – C1.

Bolalar bog'chasi binosi:

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – II.

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha klassi – F1.1.

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi – C1.

Avtoturargoh:

Binoning yong'inga chidamlilik darajasi – II.

Konstruktiv yong'in xavflilik klassi – C1.

3.6. Energiya samaradorligi.

SHNK 1.03.01 p5. talablariga muvofiq binoning energiya pasportini o'z ichiga olgan "energiya samaradorligi" yechimi, 10.5-bandning 2.03.10-2019-bandiga va tashqi issiqlik izolyatsiyaning muvofiq ishlab chiqilgan.

- SHNK 1.03.01 va 2.03.10-2019 muvofiq ilova 10.5 talablariga muvofiq binoning energiya pasporti taqdim qilingan.

- QMQ 2.01.04 2018 Issiqlik muhandislik hisobi himoya darajasi ishlab chiqilgan.

- Loyihaga ko'ra bino tom qismida 550 Vt lik 516 dona, jami quvvati 283.8 kVt quyosh panellari o'rnatilishi rejalashtirilgan.

3.7. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino tashqi muhandislik tizimlari tashqari, barcha ichki muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish tizimi, shamollatish, ichki elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik, yong'in signalizatsiyasi va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART va loyihalashtirish topshirig'iga muvofiq).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Dastlabki loyiha yechimlari loyihachi bilan kelishilgan hamda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 17.04.2025 yildagi 186189795-sonli xulosasi.

5.3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 07.03.2025 yildagi №01-02/11-4239 sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.4. Belgilangan tartibda tasdiqlagan ob'ekt qurilish hududining bosh rejasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **407 396 709 847** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

16 685 596 401 so'mga kamaytirilib, **390 711 113 446** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **314 310 244 864** so'm

Asbob-uskunalar: **34 538 963 570** so'm

QQS: **41 861 905 012** so'm

Ob'ekt qiymati oshishi quyidagi aniqlashtirish natijasida yuzaga kelgan, jumladan: ish xajmlarini ko'rib chiqish, resurs va normalarni aniqlashtirish, pudratchining boshqa xarajatlari, qurilish materiallari, mashina mexanizimlar va boshqa xarajatlar.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha

izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- binoning konstruktiv qismi bo'yicha barcha kamchiliklar aniqlashtirildi va bartaraf etildi;
- isitish, shamollatish va suv ta'minoti bo'yicha keltirilgan kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Shartnoma bo'yicha import materiallar va asbob-uskunalarini sotib olish (oborudovanie), hamda etkazib berish xarajatlari va u bilan bog'liq xarajatlar shaharsozlik hujjatlari ekspertizasidan o'tkazilmaydi.

6.4. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi" DM majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

6.5. Buyurtmachiga qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi:

- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidolari" asosida asbob-uskunalar va qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunolari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi, pudratchining boshqa xarajatlari va ishchilarning ish xaqi bo'yicha aniqlik kiritishini.

6.6. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, haqiqatda (po faktu) bajarilgan ishlar va nazorat o'lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli tashkilotlar bilan kelishishi lozim.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

- Ob'ektni tashqi muhandislik tarmoqlari ekspertiza tomonidan ko'rilmadi, kelajakda tashqi muhandislik tarmoqlari ishlab chiqilishi va o'rnatilgan tartibda ekspertizadan o'tkazilishi lozim.

6.8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining III bob 29-bandida ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgarligi belgilangan.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me'yor talablarning bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob'ektning asbob-uskunalar va qurilish materiallar narxlari, mashina-mexanizimlarni ishlash qiymati va ishlar xajmini maqullanishi sharti bilan «Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumanida pastki qavatlar noturar bo'lgan ko'p qavatli, ko'p xonadonli turar joy binolari, bolalar bog'chasi, o'quv markazi va ko'p qavatli avtoturargoh qurish uchun ruxsatnoma (Yangi Toshkent shahrini barpo etish direksiyasining 2024 yil, 12 noyabrdagi 02-4225-sonli xati)» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003-yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Bosh ekspert: Xudayberdiyev Shokir Abdiraxmanovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Mirzayev Nodirbek Xalilovich, Axmedov Asadbek Otabek O'g'li, Shukurov Rustam Sunnatovich, Abduraxmanov Muzaffar Yulchiyevich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Akmalov Sanjar Sherzod O'g'li, Xudayberdiyev Shokir Abdiraxmanovich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich